


Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-iynda 1426 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 236 baravaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat (34.4 %), savdo sohasida (25.1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (11.6 %), qurilishda tarmog'ida (8.1 %), tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-iy oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–iynda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:
– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2129.6 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 14.9 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 104.7 %ni tashkil qildi;



– 818.2 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 41.8 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyninga nisbatan o`shish sur`ati 102,7 %ni tashkil qildi;



– 721.1 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 94.2 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sinh sur`ati 103,5 % ni tashkil qildi;



– 1321.7 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyatda jami xizmatlar xajmining 71,7 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sinh sur`ati 106.2 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 73.5 % yoki 2869.1 mlrd. so`mi (o`sinh sur`ati 104.4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;


– 129.0 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 191 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 38.6 mln. AQSh dollariga yoki 70, % ga ko`p;



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,5 %ga (viloyatda jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 87,1 %i) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 2,3 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 98,1 %) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (1009.6 mlrd.so`m), Namangan (191,7 mlrd.so`m) va Uchqo`rg`on (195,5 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2018 yil yanvar-iynda kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq ho'jaligi</i>	<i>Savdo</i>
Namangan viloyati	78.0	82.7	92.6
Kosonsoy	72.7	73.4	99.7
Mingbuloq	52.2	51.7	99.3
Namangan	88.3	87.4	99.7
Norin	66.4	84.2	96.8
Pop	47.3	78.3	89.9
To'raqo'rg'on	86.5	84.8	95.2
Uychi	85.4	86.1	99.8
Uchqo'rg'on	83.6	79.4	92.3
Chortoq	51.1	85.3	98.2
Chust	60.0	80.9	76.8
Yangiqo'rg'on	55.3	82.3	95.2
Namangan sh	78.8	99.2	91.2

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Namangan (88.3%), To'raqo'rg'on (86.5 %), va Uychi (85.4 %) tumanlari tashkil etadi.

Qishloq ho'jaligi sohasida Namangan, sh (99.2 %) Namangan, (87.4 %), Uychi, (86.1 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-iynda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 69.6 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iynda 70.3 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun

ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Телефон:69 227-84-76